

**SUN'IY INTELEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN  
MUNOSABATLAR ISTE'MOLCHILARI VA ULAR HUQUQLARINI  
HIMOYA QILISH**

**Nig'matullayeva Laylo Tohir qizi**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
OAV huquqi yo'nalishi magistratura talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqola sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar doirasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasini o'rganadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik diskriminatsiya, shaffoflik va javobgarlik kabi huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Maqolada Yevropa Ittifoqining "AI Act", normativ hujjatlar tahlil qilinib, ularning sun'iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab tartibga solish, shaffoflikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvlar sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan birga, iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, onlayn munosabatlar, iste'molchi huquqlari, shaffoflik, ma'lumotlarni himoya qilish, biometrik identifikatsiya, axborot madaniyati, axborot xavfsizligi.

**ОНЛАЙН-ВЗАИМООТНОШЕНИЯ С УЧАСТИЕМ  
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЗАЩИТА ПРАВ  
ПОТРЕБИТЕЛЕЙ**

**Нигматуллаева Лайло Тохир кизи**  
Магистр направления «Право средств массовой информации»  
Ташкентский государственный юридический университет

**Аннотация:** данная статья посвящена исследованию вопросов защиты прав потребителей в условиях активного внедрения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в сферу онлайн-взаимодействий. Широкое

*применение ИИ приводит к возникновению новых юридических вызовов, связанных с конфиденциальностью персональных данных, алгоритмической дискриминацией, прозрачностью и ответственностью. В статье анализируются нормативные акты, такие как Регламент Европейского союза об искусственном интеллекте (AI Act), который классифицирует ИИ-системы по уровням риска и устанавливает соответствующие требования к их использованию. Особое внимание уделяется подходам, направленным на обеспечение прозрачности, защиту прав человека и поддержку развития ИИ-технологий. Предлагаемые меры включают в себя обязательную оценку соответствия для систем высокого риска, запрет на использование ИИ для манипуляции поведением уязвимых групп и внедрение механизмов контроля за соблюдением прав потребителей.*

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, онлайн-взаимодействия, права потребителей, прозрачность, защита данных, биометрическая идентификация, информационная культура, информационная безопасность.

## **CONSUMERS OF ONLINE RELATIONS INVOLVING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE PROTECTION OF THEIR RIGHTS**

**Nig'matullayeva Laylo Tohir qizi**

Tashkent State University of Law  
Master's student in the field of Media Law

**Abstract:** *this article explores the protection of consumer rights within the context of online interactions involving artificial intelligence (AI). The widespread adoption of AI technologies has introduced legal challenges concerning personal data privacy, algorithmic discrimination, transparency, and accountability. The article examines regulatory frameworks such as the European Union's Artificial Intelligence Act (AI Act), which classifies AI systems based on risk levels and*

*establishes corresponding obligations to ensure transparency and safeguard human rights. These approaches aim to support the development of AI technologies while simultaneously protecting consumer rights and interests.*

**Keywords:** *artificial intelligence, online interactions, consumer rights, transparency, data protection, biometric identification, information culture, information security*

### **Kirish**

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, sun‘iy intellekt kundalik hayotning deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda. Onlayn savdo, xizmat ko‘rsatish, moliya, tibbiyot, ta‘lim va hatto huquqiy tizimlarda sun‘iy intellekt asosidagi algoritmlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, internet orqali amalga oshirilayotgan munosabatlarda sun‘iy intellektning ishtiroki ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Sun‘iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar deganda, insonlar va sun‘iy intellekt tizimlari o‘rtasida yoki sun‘iy intellekt vositasida amalga oshiriladigan raqamli muloqot va hamkorlik tushuniladi. Bu munosabatlar sun‘iy intellektning insonlar o‘rtasidagi muloqotni boshqarishi, o‘zgartirishi yoki yaratishi orqali yuzaga keladi. Masalan, sun‘iy intellekt tizimi foydalanuvchi nomidan xabarlar yuborishi yoki javoblar tayyorlashi mumkin. Foydalanuvchilar sun‘iy intellekt tizimlari bilan bevosita muloqotda bo‘lishadi. Bu chat-botlar, virtual yordamchilar yoki boshqa sun‘iy intellekt tizimlari orqali amalga oshiriladi. Sun‘iy intellekt foydalanuvchilarning onlayn kontentini tahrirlaydi yoki yaxshilaydi. Masalan, matnlarni grammatik jihatdan to‘g‘rilash, rasm va videolarga filtrlar qo‘shish yoki avtomatik tarjima qilish kabi funksiyalar. Sun‘iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari bilan bir qatorda,

ularning noto‘g‘ri ishlashi yoki adolatsiz qarorlar qabul qilishi inson huquqlariga putur yetkazishi mumkin. Masalan, onlayn xaridlar paytida sun‘iy intellekt algoritmlarining noto‘g‘ri tavsiyalari, diskriminatsion narx belgilash amaliyotlari yoki shaxsiy ma‘lumotlarning himoyasizligi iste‘molchilar manfaatlariga zarar yetkazishi ehtimoli mavjud. Mazkur maqolada sun‘iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar kontekstida iste‘molchilarning huquqlari qanday xavf ostida qolayotgani, mavjud yuridik mexanizmlar va xalqaro tajribalar asosida bu huquqlarni qanday himoya qilish mumkinligi o‘rganiladi. Shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalarining javobgarlik va shaffoflik tamoyillari asosida ishlashini ta‘minlovchi normativ-huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Ushbu jarayonlarda sun‘iy intellektning faol ishtiroki, ayniqsa generativ sun‘iy intellekt tizimlarining paydo bo‘lishi bilan iste‘molchilar va texnologiya o‘rtasidagi aloqalar tubdan o‘zgarmoqda. Biroq, bu yangiliklar bilan birga muammolar ham yuzaga kelmoqda — xususan, shaxsiy ma‘lumotlar himoyasi, shaffoflik, rozilik olish va noto‘g‘ri qarorlarning oldini olish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

### **Metod**

Ilmiy maqola xalqaro qonunchilik, AQSh va Yevropa Ittifoqi regulyatorlari hisobotlari hamda akademik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlari sun‘iy intellect tizimlariga zid kelishi, iste‘molchilar huquqlariga ta‘siri va tartibga solish strategiyalarini tahlil qiladi. Yevropa Ittifoqining sun‘iy intellektni tartibga soluvchi birinchi qonunchilik hujjati bo‘lgan Sun‘iy intellect to‘g‘risidagi akt, sun‘iy intellect tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflaydi va yuqori xavfli tizimlarga qat‘iy talablar qo‘yadi. Bu qonun

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, shaffoflikni ta'minlash va sun'iy intellekt tizimlarining xavfsizligini kafolatlashga qaratilgan. Maqolada iste'molchilarinig sun'iy intellektga oid bo'lgan statistic ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, AQSH, Xitoy davlati qonunchiliklaridan maqolani yoritishda foydalanildi.

### **Natija**

Texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda sun'iy intellekt innovatsiyalar asosiga aylangan bo'lib, sanoatlarni tubdan o'zgartirmoqda va kundalik hayotimizga chuqur kirib bormoqda. 2025-yil bu borada erishilgan ulkan yutuqlarning timsoli bo'lib, statistik ma'lumotlar va tendensiyalar sun'iy intellektning keng qamrovli joriy etilishi va ta'sirini yorqin tasvirlab bermoqda. Statistika ma'lumotlari sun'iy intellektning biznesga integratsiyasi, demografik qamrovi, sun'iy intellekt asosidagi ish o'rinlarining o'sishi, ta'lim tashabbuslari, tadbirkorlar fikri, iste'molchilar foydalanishi, ishonch muammolari va huquqiy muhokamalar haqida keng ko'lamli tasavvur beradi. Bundan maqsad sun'iy intellektning hozirgi holati va istiqboli haqida chuqur tushuncha berish, shuningdek, bu o'zgaruvchan davrda to'g'ri harakat qilish uchun amaliy maslahatlar taqdim etishdir. Exploding Topics tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra:

- Kompaniyalarning 77 foizi sun'iy intellektdan foydalanmoqda yoki undan foydalanishni rejalashtirmoqda;
- Kompaniyalarning 83 foizi sun'iy intellektni o'z biznes strategiyasida eng muhim ustuvor yo'nalish deb hisoblaydi.

Sun'iy intellekt endilikda kelajakdagi g'oya emas, balki hozirgi kundalik qurilmalar va tizimlarga chuqur singib ketgan haqiqatdir. Quyidagi faktlar sun'iy intellektning iqtisodiy ta'siri va global o'sishini ko'rsatib beradi:

- Hozir foydalanilayotgan qurilmalarning 77 foizida qandaydir shaklda sun'iy intellekt mavjud;
- 10 ta tashkilotdan 9 tasi raqobatbardoshlik uchun sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlaydi;
- 2030-yilga kelib, sun'iy intellekt global iqtisodiyotga 15,7 trillion AQSh dollari miqdorida hissa qo'shishi kutilmoqda;
- 63% tashkilotlar kelgusi uch yil ichida SI'ni joriy qilish niyatida;
- Sun'iy intellekt bozorining hajmi yiliga kamida 120% o'sishi kutilmoqda;
- Generativ sun'iy intellekt hali ishlatmayotganlarning 88% bu texnologiya ularning hayotiga qanday ta'sir qilishini bilmaydi;
- Iste'molchilarning atigi 1/3 qismi sun'iy intellekt platformalaridan foydalanayotganini o'ylaydi, aslida esa bu ko'rsatkich 77% ni tashkil etadi.<sup>1</sup>

Mijozlarga xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlarida ham SI yordamida sezilarli samaradorlikka erishish mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra:

- 70% iste'molchilar chatbotdan 5 daqiqa ichida javob kutadi;
- 74% iste'molchilar savollariga zudlik bilan javob olishni xohlaydi;
- 75% iste'molchilar chatbotlar oddiy mijozlarga xizmat vazifalarini bajara olishiga rozilik bildiradi, biroq faqat 33% murakkab savollarni chatbotlar hal qilishi mumkin deb hisoblaydi;
- Dunyo bo'yicha 38% iste'molchilar chatbotlardan foydalanishni afzal ko'radi;

<sup>1</sup> <https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/>.

- 80% iste'molchilar oddiy ishlar, masalan, hisob balansini tekshirish yoki uchrashuv belgilash kabi vazifalar uchun chatbotlardan foydalanishni ma'qul ko'radi;
- 64% biznes egalari sun'iy intellekt mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilashiga ishonadi;
- Kelgusi o'n yillikda sun'iy intellekt texnologiyalari 15 trillion AQSh dollaridan ortiq daromad keltirishi mumkin.<sup>2</sup>

Sun'iy intellekt keng tarqalib borayotganiga qaraganda, odamlarning unga bo'lgan munosabati tobora ijobiylashmoqda. Biroq bu texnologiya kamchiliklardan holi emas. Sun'iy intellekt juda ishonchli tarzda yolg'on ma'lumotlar yaratishi mumkin, bu esa siyosiy ziddiyatlar, yolg'on yangiliklar va tarafkashliklar avj olgan hozirgi jamiyatda jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Muhim statistikalar:

- 63% odamlar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentda tarafkashlik yoki noto'g'rilik bo'lishidan xavotirda;
- Zamonaviy iste'molchilarning uchdan ikki qismi sun'iy intellekt mijozlar bilan muloqotni yaxshilashini qo'llab-quvvatlaydi;
- 52% iste'molchilar sun'iy intellekt shaxsiy ma'lumotlarni himoya qila olishiga shubha bilan qaraydi;
- Iste'molchilarning yarmi ish o'rinlarining kompyuterlar tomonidan egallanishini hozirgi zamon haqiqat deb hisoblaydi;
- Har 10 iste'molchidan 4 tasi sun'iy intellekt kompaniyalarni mijozlar ma'lumotiga ehtiyotkorroq munosabatda bo'lishga majbur qiladi deb hisoblaydi;
- Faqat 7% odamlar da'vo arizalarida chatbotlarga ishonadi;

<sup>2</sup> Authority Hacker, Accenture, Gartner, Forbes. <https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/>.  
SJIF: 5.051

- sun'iy intellekt bozorining ochiqlik darajasining pastligi 75% direktorlarni xavotirga solmoqda;
- Hindiston, Xitoy, G'arbiy Yevropa va AQShdagi iste'molchilarning 41% sun'iy intellekt hayotni yaxshilaydi deb hisoblaydi;
- Chatbotlar 38% iste'molchilarda ijobiy taassurot qoldirgan;
- 2023-yilda aholining 48% qismi generativ va suhbatdosh sun'iy intellekt (ayniqsa ChatGPT) texnologiyalariga katta e'tibor qaratgan;
- Foydalanuvchilarning yarmidan kamrog'i sun'iy intellekt qanday ishlashini tushunishini bildirgan;
- 49% iste'molchilar avtomatlashtirishning, ayniqsa tibbiyotda, xavfsizligiga shubha bilan qaraydi;
- 28% odamlar ba'zi vazifalarda inson qo'li tegishi beqiyos ahamiyatga ega deb hisoblaydi;
- 43% korxonalar texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolishdan xavotirda.<sup>3</sup>

### **Munozara**

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlarning jadal rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Biroq, bu jarayon iste'molchilar huquqlariga doir bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasi, rozilik asosida ma'lumot yig'ish, axborotning aniqligi va shaffoflik kabi huquqlari sun'iy intellekt tizimlari orqali to'laqonli ta'minlanmayapti. Shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan xizmatlar (chatbotlar, tavsiya tizimlari, avtomatlashtirilgan qarorlar)

<sup>3</sup> Authority Hacker, Blumberg Capital, Salesforce, PwC, LivePerson, Forbes, Accenture.  
<https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/>.

ko‘pincha inson ishtirokisiz ishlaydi. Bu esa noto‘g‘ri ma’lumot, algoritmik tarfakashlik yoki aniqlanmagan xatoliklar sababli iste’molchilarning zarar ko‘rish xavfini oshiradi.<sup>4</sup> Natijada, iste’molchilar o‘zlariga nisbatan qanday qarorlar qabul qilinayotganini tushunmay qolishlari mumkin — bu esa ularning axborotga egalik huquqi va o‘zini himoya qilish imkoniyatini cheklaydi. Algoritmik qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflikning yo‘qligi, foydalanuvchi roziligisiz ma’lumot yig‘ilishi yoki noto‘g‘ri xulosa chiqarilishi kabi holatlar bugungi kunda jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Misol uchun, foydalanuvchining moliyaviy reytingi, tibbiy diagnozi yoki kredit olishga yaroqliligi kabi masalalarda sun’iy intellekt tizimlari asosida qarorlar qabul qilinayotgani iste’molchi huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.<sup>5</sup> Xalqaro tajriba, xususan Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi Akti (2024), ushbu muammolarga huquqiy yechim sifatida xavfga asoslangan yondashuvni taklif etadi. Ushbu akt sun’iy intellekt tizimlarining xavf darajasiga qarab ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilar uchun majburiyatlarni belgilaydi. Ko‘plab sun’iy intellekt tizimlari minimal xavf tug‘dirsa-da, ular baholanishi zarur. Aktga ko‘ra, odamlar yoki zaif guruhlarining kognitiv-behavioral manipulyatsiyasi: masalan, bolalarda xavfli xatti-harakatlarni rag‘batlantiruvchi ovozli o‘yinchoqlar ta’qiqlanadi. Ijtimoiy reyting belgilash, odamlarni xatti-harakatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki shaxsiy xususiyatlariga qarab tasniflash, odamlarni biometrik identifikatsiya va tasniflash, jamoat joylarida yuzni aniqlash kabi real vaqtli va masofaviy biometrik identifikatsiya tizimlari man etiladi. Ba’zi istisnalar huquqni muhofaza qilish maqsadlarida ruxsat etilishi mumkin. “Real vaqtli” masofaviy biometrik identifikatsiya tizimlariga faqat jiddiy holatlarda, sud ruxsati bilan, ruxsat beriladi.

<sup>4</sup> Luciano Floridi, Josh Cows.

<sup>5</sup> Goodman & Flaxman, 2017.

Masofaviy identifikatsiya tizimlari esa jiddiy jinoyatlarni tergov qilishda, sud tasdig'i bilan qo'llanilishi mumkin. Sun'iy intellekt bilan bog'liq xizmatlarni xavf darajasiga qarab tasniflash va ularni tegishli tartibga solish, masalan, yuqori xavfli tizimlar uchun qat'iy talablar belgilash — bu sohadagi muammolarni yumshatishda samarali yondashuvdir. Bunda sun'iy intellekt tizimlari xavflilik darajasiga ko'ra tasniflanadi va yuqori xavfli tizimlar uchun qat'iy texnik va huquqiy talablar joriy etiladi. Bu yondashuv orqali inson huquqlari ustuvorligini saqlab qolish, hamda texnologik innovatsiyalarni nazorat ostida rivojlantirish mumkin bo'lmoqda.<sup>6</sup>

Yevropa Ittifoqidan keyin sun'iy intellektni tartibga solish borasida eng rivojlangan yondashuv Xitoyga tegishli deb aytish mumkin. Turli reytinglarga ko'ra, Xitoy sun'iy intellekt sohasida AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi, AQSh esa global yetakchilikni saqlab qolmoqda.<sup>7</sup> Biroq, rivojlanish sur'atlari bo'yicha Xitoy AQShni ortda qoldirmoqda, bu esa unga nafaqat global yetakchilikka da'vo qilish, balki yaqin kelajakda bu maqsadga erishish imkonini beradi. Ya'ni, bugungi kunda Xitoy sun'iy intellektni rivojlantirish sur'atlari bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda, rivojlanish darajasi bo'yicha esa AQShdan keyin ikkinchi o'rinda, shuningdek, tartibga solish darajasi bo'yicha Yevropa Ittifoqidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. AQSh iqtisodiy sohada global yetakchi bo'lib, bu mavqeni saqlab qolish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari tinchlik va harbiy sohalarda faol ishlab chiqilmoqda va ularni rivojlantirish milliy texnologik ustuvorlik sifatida belgilangan. Biroq, AQShning sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy tartibga solish darajasi Yevropa Ittifoqi va Xitoydan ortda

<sup>6</sup> <https://www.europarl.europa.eu/portal/en>.

<sup>7</sup> The Global AI Index, 2024. URL: <https://www.tortoisemedia.com/intelligence/globalai/#rankings>.

qolmoqda.<sup>8</sup> AQSh sun'iy intellekt sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga katta e'tibor qaratadi. Masalan, 2022-yilda e'lon qilingan "AI Bill of Rights" (Sun'iy intellekt huquqlari deklaratsiyasi) fuqarolarning raqamli xavfsizligi, shaxsiy hayoti va algoritmik adolatga oid huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.<sup>9</sup> Shuningdek, 2023-yilgi Prezident farmoni sun'iy intellekt texnologiyalarining xavfsiz, ishonchli va inson huquqlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. AQShda sun'iy intellekt sohasida yagona, markazlashtirilgan qonunchilik mavjud emas. Buning o'rniga, turli federal agentliklar (masalan, FDA, NHTSA) o'z sohalariga oid sun'iy intellekt texnologiyalarini tartibga soladi. Bu yondashuv texnologik innovatsiyalarni tezda qamrab olish imkonini bersa-da, umumiy strategiyaning yo'qligi sababli muayyan bo'shliqlar va nomuvofiqliklar yuzaga keladi. AQSh hukumati sun'iy intellekt sohasida haddan tashqari qat'iy tartibga solishdan saqlanadi, chunki bu innovatsiyalarni to'xtatishi mumkin. Umuman olganda, AQShning sun'iy intellekt sohasidagi yondashuvi inson huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va xavflarni boshqarish o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan.<sup>10</sup> Biroq, yagona va markazlashtirilgan qonunchilikning yo'qligi ba'zi muammolarga olib kelishi mumkin. Kelajakda AQShda sun'iy intellekt sohasida yanada yaxshilangan va muvofiqlashtirilgan tartibga solish tizimi yaratilishi kutilmoqda.

O'zbekistonda ham sun'iy intellektdan foydalangan holda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanmoqda. Bu borada ayrim huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, ular sun'iy intellektning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmagan.

<sup>8</sup> The National Artificial Intelligence Research and Development Strategic Plan, 2016. URL: [https://www.nitrd.gov/pubs/national\\_ai\\_rd\\_strategic\\_plan.pdf](https://www.nitrd.gov/pubs/national_ai_rd_strategic_plan.pdf).

<sup>9</sup> "What is the AI Bill of Rights?" <https://www.ibm.com/think/author/tomkrantzaha.html>.

<sup>10</sup> <https://www.wiz.io/>.

Masalan, “Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risida”gi qonun ma’lumotni inson to’plagan holatlarga ko’proq mos keladi, sun’iy intellektning avtomatik yig’ish va qayta ishlash imkoniyatlarini esa yetarli darajada tartibga solmaydi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt xizmatlarining shaffofligi va javobgarligi bo’yicha aniq mexanizmlar yo’qligi iste’molchilarning huquqiy himoyasini zaiflashtiradi. Sun’iy intellekt bilan bog’liq munosabatlar uchun alohida regulativ baza zarur bo’lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, O’zbekistonda sun’iy intellekt asosida xizmat ko’rsatadigan onlayn platformalar uchun maxsus qonunchilik hujjatlari, foydalanuvchi roziligi standartlari, va algoritmlarning ochiqqligini ta’minlovchi regulativ mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Bunday yondashuv orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining rivoji bilan birga fuqarolarning huquqiy xavfsizligi ham ta’minlanadi. Hozirda “Kiberxavfsizlik to’g’risida” qonun mavjud bo’lib, kibermakonda axborot tizimlarining ishlashida uzilishlarga va (yoki) ulardagi axborotning ochiqqligi, yaxlitligi va undan erkin foydalanilishining buzilishiga olib kelgan hodisarni oldininolishga qaratilgan.<sup>11</sup> Sun’iy intellektni tartibga solishda kerakli qonunlarni ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlar loyihalaridan andoza olish mumkin. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi platformalar uchun maxsus qonunchilik asoslari ishlab chiqish, xavf darajasiga asoslangan reglamentlarni joriy qilish, foydalanuvchilarga rozilik asosida xizmat ko’rsatish standartlarini joriy etish, sun’iy intellekt tizimlarining javobgarlik, shaffoflik va tushuntirish imkoniyatlarini ta’minlovchi mexanizmlarni yaratish kabi yondashuvlar iste’molchilarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o’ynaydi.

### **Xulosa**

<sup>11</sup> O’zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O’RQ-764-son ; <https://lex.uz/ru/docs/-5960604>.  
SJIF: 5.051

Sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar kengayib borayotgan bir paytda, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasi ilgari hech qachon bo'lmagan darajada dolzarb bo'lib bormoqda. Sun'iy intellekt tizimlari orqali amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan qarorlar, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va algoritmik diskriminatsiya xavfi iste'molchilarning huquq va manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, iste'molchilarning roziligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xizmat ko'rsatishda shaffoflikni oshirish orqali huquqiy barqarorlikka erishish mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt xizmatlari iste'molchilari uchun maxsus reglament va kodekslar ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, iste'molchilar shaxsiy ma'lumotlarining sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qayta ishlanishiga rozilik berish yoki rad etish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Bu, ayniqsa, yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun muhimdir. Bunday yondashuvlar iste'molchilarning shaxsiy hayotini himoya qilish, adolatli va shaffof sun'iy intellekt tizimlarini yaratish hamda inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/>.
2. Authority Hacker, Accenture, Gartner, Forbes.  
<https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/>.
3. Authority Hacker, Blumberg Capital, Salesforce, PwC, LivePerson, Forbes, Accenture. <https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/>.
4. Luciano Floridi, Josh Cows.
5. Goodman & Flaxman, 2017.

6. <https://www.europarl.europa.eu/portal/en>.
7. The Global AI Index, 2024. URL:  
<https://www.tortoisemedia.com/intelligence/globalai/#rankings>.
8. The National Artificial Intelligence Research and Development Strategic Plan, 2016: [https://www.nitrd.gov/pubs/national\\_ai\\_rd\\_strategic\\_plan.pdf](https://www.nitrd.gov/pubs/national_ai_rd_strategic_plan.pdf).
9. “What is the AI Bill of Rights?”  
<https://www.ibm.com/think/author/tomkrantzhaha.html>.
10. <https://www.wiz.io/>.
11. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son ; <https://lex.uz/ru/docs/-5960604>.